



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

RAHMONOV KAMOL
JAMOLOVICH ¹

¹ Tarix fanlari nomzodi, Buxoro davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasida dotsenti,
E-mail: kamol.rakhmonov76 @ gmail.com

**TARIX FANI O'QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATINI OSHIRISHDA HAMKORLIK
STRATEGIYALARIGA ASOSLANGAN DARSLARNI TASHKIL ETISHNING AMALIY
AHAMIYATI ("1918-1939 yillarda fransiya" mavzusi misolida)**

Annotation: In the following article the methods of the organization of lessons based on the strategy of cooperation of the teachers of history in the teaching of the theme "France in 1918-1939" in the world history are presented.

Key words: innovative environment, cooperation strategies, organs of periodical publication, local print of Bukhara, graphic organizers, Conceptual table, «Wenn technology», «T-diagram», «Cluster».

Аннотация: В данной статье рекомендуется учителям истории методы по организованные уроков на основе стратегии сотрудничества по всемирной истории по обучению темы "Франция в 1918-1939 годах".

Ключевые слова: инновационная среда, стратегии сотрудничества, органы периодических изданий, местная печать Бухары, графические

органайзеры, Концептуальная таблица, «Технология Венна», «Т-диаграмма», «Кластер».

Annotatsiya: Mazkur maqolada Jahon tarixining “1918-1939 yillarda Fransiya” mavzusini o‘qitishda tarix fani o‘qituvchilariga hamkorlik strategiyalariga asoslangan darslarni tashkil etish metodlari tavsiya etiladi.

Калит сюзлар: innovatsion muhit, hamkorlik strategiyalari, davriy matbuot organlari, Buxoro mahalliy matbuoti, grafik organayzerlar, “Konseptual jadval”, “Venn texnologiyasi”, “T-chizma”, “Klaster”.

Kirish. Tarix fani o‘qituvchilarining dars mashg‘ulotlarida o‘z metodik tayyorgarliklarini takomillashtirib borishlari bugungi kunning eng zarur va dolzarb jarayonlaridan biridir. Bu borada tarix o‘qituvchilarining nazariy va amaliy tayyorgarligi, ta’lim amaliyoti variativligi, innovatsion muhitda texnika vositalaridan foydalanish, kompleks rivojlanish, multimedia tasvirli ma’lumotlarni qo‘llash, dars jarayonida hamkorlik strategiyalaridan foydalanish globallashtirish sharoitida tarix fani o‘qituvchisining komponentligini oshirishning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ma’lumki, tarix fani o‘qituvchilari har bir dars mashg‘ulotlar (ma’ruza, seminar, aralash dars)ni zamonaviy innovatsion ta’lim texnologiyalar asosida ta’limiy, tarbiyaviy hamda keng qamrovli tashkil etishga mas’ul hisoblanadi. Shuningdek, ta’lim beruvchi sifatida faqat o‘quv materiallarini taqdim etish bilangina cheklanmasdan ta’lim oluvchi shaxsini ijtimoiylashtirish va o‘zini-o‘zi namoyon qilish hamda madaniy muhit bilan muloqotga tez kirisha olishga o‘rgatishi kerak. Natijada ta’lim oluvchi shaxs tarix fani ma’lumotlari orqali o‘zlarining ijtimoiy, kasbiy, shaxsiy muammolarini osongina yechishga qodir bo‘lishi lozim.

Mazkur maqolada yuqorida qayd etilgan barcha pedagogik va metodik omillarni inobatga olib, dars mashg‘ulotlari samaradorligini yanada oshirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan tarix fani o‘qituvchisiga qo‘shimcha materiallardan hamda hamkorlik strategiyalaridan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Oliy va o'rtta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Jahon tarixi" fani o'quv dasturida [1] G'arbiy Yevropa davlatlaridan biri - Fransiya tarixini o'rganish uchun ham mavzular ajratilgan. Shuningdek, "1918-1939 yillarda Fransiya" mavzusi bo'yicha darslik va o'quv-metodik majmualarda yetarli ma'lumotlar mavjud. Biroq dars samaradorligini yanada oshirishni o'z oldiga maqsad qilib olgan o'qituvchi darsning yangi mavzuni bayoni bosqichini ikki qismga ajratishi lozim. Darsning birinchi bosqichida mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari qayd etilgach, nazariy ma'lumotlarni yetkazishga asoslangan ikkinchi qismda qo'yidagi qo'shimcha materiallarni taqdim etilishiga tavsiya beriladi.

1917-1930 yillarda Turkiston mintaqasida chop etilgan davriy matbuot organlari sahifalaridan mazkur mavzu uchun qo'shimcha va muhim ma'lumotlar olish imkoniyati mavjud. Jumladan, 1920-1930 yillarda Buxoroda nashr yuzini ko'rgan "Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetalarida [2] Fransiyaning Birinchi jahon urushidan keyingi yillarda olib borgan tashqi siyosati hamda iqtisodiy va madaniy ahvoliga oid ko'pgina maqola va xabarlar mavjud. Buxoro milliy matbuoti sahifalarida chop etilgan 1920 yillarning boshlarida Fransiyaning Yevropada gegemonlik da'vosini amalga oshirish yo'lidagi sa'y-harakatlarini isbotlaydigan bir qator birlamchi manbalar talabalarga havola etilsa maqsadga muvofiq.

"Buxoro axbori" gazetasining 1923 yillardagi sonlarida "Fransiya-Germaniya orasida", "Rur masalasi tevaragida" kabi ruknlar ostida 10 dan ortiq maqola va xabarlar bosilgan. "Fransuzlarning Vestfaliyaga harakati", "Rur o'lkasida fransuzlarga qarshi namoyish", "Rur o'lkasida fransuz askarlarining soni", "Fransiya tarafidan ishg'ol etilg'on Germaniya o'lkalarida harbiy holat", "Vahshiyona muomalalar", "Ahvol jiddiylashadur", "Fransuzlar ishg'ol qilmakdadurlar" [3] kabi qisqa xabarlar orqali talabalarga qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etish mumkin. Jumladan, "Vahshiyona muomalalar" maqolasidan: "Germaniyaning Rur o'lkasini o'z zulmiga olg'on fransuz istilo hokimiyati toshko'mirlarni nizo kuchi bilan Fransiya'ga uzotmoqqa boshlog'on.

Butun mehmonxonalariga, 1- va 2-sinf maktablarga fransuz zobitlari va askarlari joylashtirilib, muallim va o'quvchilar ochiq havoga chiqarib tashlang'on. Isiniya shahrida 400 hujrada iborat bo'lg'on mehmonxonaga Fransiya zobitlari joylashib, maorif binolariga esa askarlar qoyilg'on. Fransuzlar yerli nemis aholiga bundan boshqa ham hiyla vahshiyliklar va vahshiyona muomalalarda bo'lg'onlar"[4] –kabi fikrlar keltirilsa, talabning mazkur mavzu borasidagi tushunchalari yanada kengayadi. Shuningdek, Buxoro mahalliy matbuotida nega aynan Fransiya tarixiga oid materiallar ko'plab chop etilganligini tarix o'qituvchisi o'zining innovatsion yondashuvi asosida shunday izohlashi zarurki, 1922 yildan boshlab BXSRS-Germaniya o'rtasida savdo, madaniy-texnikaviy aloqalar yo'lga qo'yilganli tufayli Fransiyaning Germaniyaga hujumi - bu bizning do'stlarimizga qilingan tajovuz deb qaralganidir.

Ikkinchidan, Buxoro mahalliy matbuoti sahifalarida "Xorijiy ellarda", "Chet el xabarlari", "Fan-texnika yangiliklari" ruknlar mavjud. O'rganilayotgan mavzuga oid, ya'ni Fransiya'dagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarga doir ma'lumotlarni alohida rejalarga ajratib, dars jarayonida qo'llash mumkin. "Fransiya ma'murlarining xabari", "Puan Qori (Puankare –K.R.) ma'ruzasi", "Fransiya radiostansiyasi", "Lion yarmarkasida", "Elektrik otash aroba", "Elektrik avtomobillar" [5] kabi xabarlar ostidagi materiallar ayniqsa ahamiyatlidir. Aynan: "O'tgan yilning dekabr oyida Fransiya "Umumiy elektrik shirkati" tarafidan yangi usulda elektrik otash aroba yasali, Parij-Orlean temir yo'lida tajriba qilinib ko'rildi. Bu otash aroba soatiga 156 chaqirim yo'l yura oladur". "Avtomobillarni benzin bilan harakatga keltirish juda qimmatga tushgani uchun ko'p mamlakatlarda avtomobillarning ishida elektrik kuchidan foydalana boshladilar. Elektrik kuchi sharshara va oqim suvlaridan olingani uchun benzina ko'ra ko'p arzon tushadur. Fransiya'da elektrik kuchi bilan harakatga keltira turg'on yuk avtomobillari bilan yasalg'on tajriba muvaffaqiyatli ravishda bo'ldi. Hozirgi vaqtda Fransiya'ga tegishli Shimoliy Afrika hududida 170.000, Angliyada 40.000, Italiyada 4000 elektrik avtomobillar bor. Bularning soni kundan-kunga ortib boradur" [6].

Yangi mavzu bayoni bosqichida o‘qituvchi yuqorida keltirilgan qo‘shimcha materiallarni tanishtirganidan so‘ng, hamkorlik strategiyalarning eng ommaviy texnologiyalari hisoblangan “Konseptual jadval”, “Venn texnologiyasi”, “T-chizma”, “Klaster” kabi grafik organayzerlar orqali o‘quv mashg‘ulotini mustahkamlash bosqichi uchun qo‘yidagi tavsiyalar beriladi[7]:


Tadqiqot metodologiyasi. “Konseptual jadval” dasturi orqali “1918-1939 yillarda Fransiya” mavzusidagi muammoli voqyeliklarning sabab va omillari, uning yechimi, tegishli yakuniy xulosalar asosida amalga oshiriladi. “Venn texnologiyasi” asosidagi qiyoslash uslubi orqali “Germaniya” va “Fransiya” davlatlariga xos bo‘lgan umumiy belgilar tahlil etilishi, “T-chizma” usuli bilan Puankare hukumati olib borgan siyosatning ijobiy yoki salbiy tomonlari izohlanishi, “Klaster” usuliga “Rur muammosi” tushunchasini kengroq mulohaza qilinishi zarurligi vazifasidan kelib chiqib, talabalar 4 guruhga ajratiladi. Har bir guruhga yuqoridagi vazifalar tushuntiriladi va alohida topshiriq varaqalari tarqatiladi.

1-guruh uchun topshiriq: “Konseptual jadval” orqali muammoli voqyeliklarning sabab va omillari, uning yechimi xulosa orqali izohlanishi kerak.

Muammoning mazmuni	Sabab va omillari	Muammoning yechimi	Xulosa
1. Qanday omillarga asoslanib, Fransiya 1920 yillarning boshlarida Yevropada gegemonlik da'vosini amalga oshirish yo‘lini tutdi?			

2-guruh uchun topshiriq: talabalarga “Klaster” dasturi orqali o‘rganilayotgan mavzudagi “Rur muammosi” tayanch tushunchasi bo‘yicha yangi ma'lumotlarni qayd qilish vazifasi beriladi.

“Rur muammosi”



3-guruh uchun topshiriq: talar “Rur muammosi” orqali o‘rganilayotgan mavzuga tegishli tarixiy shaxslardan biri K. Puankare faoliyatiga oid jihatlarni tahlil etadilar.

Raymon Puankare qanday davlat arbobi bo‘lgan?

+	-
+	-
+	-
+	-
+	-
+	-
+	-

4-guruh uchun topshiriq: talabalar“Venn diagrammasi” orqali Germaniya, Fransiya, AQSh iqtisodiyotiga xos umumiy belgilarni qiyosiy tahlil qiladilar.

1)* Germaniya iqtisodiyoti 2)* Fransiya iqtisodiyoti 3)*AQSh iqtisodiyoti



A)*

B)*

Har bir guruh topshiriqni bajarib, varaqalarni o‘qituvchiga taqdim etadi. Fikrlar muhokama qilinadi, o‘qituvchi tomonidan xulosalanadi, yangi mavzuni mustahkamlash bosqichi yakunlanadi.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi tavsiyalar orqali noan'anaviy darslarni tashkil etishning tahliliy hususiyati shundaki, birinchidan, o‘qituvchining innovatsion faoliyati, kasbiy kompetentligi va metodik tayyorgarligi takomillashib boradi, ikkinchidan, o‘qituvchi ilm-fan va texnologiya sohasida yuz berayotgan intensiv o‘zgarishlarni ilg‘ay oladi, ommaviy-axborot vositalari, internet ma'lumotlarini, innovatsiyalarni o‘tiladigan har bir dars jarayoniga olib kiradi, tarixni bahs, munozara asosida o‘rganish orqali komil insonni tarbiyalash quroliga aylantira oladi, natijada tarixiy xotirani shakllantirish asnosida qat'iyatli, mustahkam irodali, e'tiqodida sobitqadam turadigan shaxslarni tarbiyalashga erishadi.

Mazkur mavzuning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati shundaki, o‘qituvchilarga “1918-1939 yillarda Fransiya” mavzusi yuzasidan bilim va ko‘nikmalar hosil qilish bilan birga, ularga yangi bilimlar beriladi, ilmiy tushuncha va tasavvurlari kengaytiriladi. Mazkur mavzuni o‘qitish orqali talabalarni tinchlik va uning qadr-

qimmatini teran anglash, har qanday yot unsur va g'oyalarga qarshi turish kabi tarbiyaviy metodlarni qo'llash nazarda tutiladi.

Bugungi avlodda mafkuraviy immunitet, qat'iy iroda va kelajakka ishonch ruhini tarbiyalash maqsadi ko'zlanganligi ham mavzuning tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi.

Xulosa va takliflar. Ikki jahon urushi oralig'ida Fransiya tarixini mavzuni samarali tashkil etish uchun mahalliy matbuot materiallaridan foydalanish va grafik organayzerlarni joriy qilishning amaliy ahamiyati bo'yicha quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

Birinchiidan, Fransiya tarixi (1918-1939 yillar)ni o'rganishga qaratilgan qo'shimcha manbalar ko'p, shuningdek, G'arb badiiy adabiyoti durdonalarini ham talabaga tavsiya berilishi mumkin. Biroq ulardan tanqidiy va ijodiy tahlil asosida foydalanishni talabalarga o'qituvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar taqdim etilishi lozim.

Ikkinchiidan, "1918-1939 yillarda Fransiya" mavzusidan qo'shimcha bilimlar berish orqali talabalar ongida bugungi kundagi fransuz-o'zbek do'stligi tarixi chuqur ildizlarga, ya'ni Amir Temur davriga borib taqalishi haqida ularda kengroq tasavvur hosil qilish zarurdir.

Uchinchiidan, mazkur mavzuni o'tishda innovatsiya, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari keng, bularni dars jarayoniga olib kirish o'qituvchidan ijodkorlik va pedagogik mahorat talab qilinadi.

Ikki jahon urushi oralig'ida Fransiya tarixini o'rganish uchun mahalliy matbuot materiallaridan foydalanishning muhim jihatlari bo'yicha qo'yidagicha taklif va mulohazalar bildirish o'rinlidir:

1. Ushbu mavzu yuzasidan o'quv namunaviy dars ishlanmasini chop etib, ijodkor tarix fani o'qituvchilari orasida targ'ib qilish va bu orqali ularning fikr - mulohazalarini olish;

2. Mazkur mavzu asosi va innovatsion ta'lim metodologiyasidan kelib chiqib, boshqa davlatlar (Turkiya, Yaponiya, Afg'oniston va hokazo)ning mazkur davr tarixiga oid qo'shimcha ishlanmalar yaratish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017 yil 28 avgustdagi 607-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Jahon tarixi" fan dasturi. – Toshkent. 2017. -45 bet.
2. "Buxoro axbori" gazetasi BXSР Markaziy Ijroiya Qo'mitasi matbuot organi bo'lib, 1920 yil 9 sentyabrdan 1923 yil oktyabrgacha chop etilgan. Gazeta o'zbek tilida, isloh qilingan arab imlosida, sarg'ish rangli o'rtacha sifatdagi qog'ozda, haftada 1-2 marta, 1500-2000 nusxada chiqarilgan. 1923 yil 16 oktyabrdan "Ozod Buxoro" nomida gazeta nashr qilina boshlangan. Bu gazeta 1930 yil oktyabr oyigacha chiqib turgan. Gazetalarning to'liq taxlamlari bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi (O'zbekiston MDA) va Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyati markaziy kutubxonasida saqlanmoqda. Bu haqda qarang: Rahmonov K. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixi matbuot sahifalarida. Monografiya. -Toshkent, "ABU MATBUOT - KONSALT", 2012 y. 175 bet.
3. Buxoro axbori. 129-son, 1923 yil 28 yanvar; 131-son, 1923 yil 5 fevral; 132-son, 1923 yil 5 fevral; 133-son, 1923 yil 11 fevral; 136-son, 1923 yil 23 fevral; 157-son. 1923 yil 17 aprel.
4. Buxoro axbori. 133-son, 1923 yil 11 fevral.
5. Buxoro axbori. 132-son, 1923 yil 5 fevral; 133-son, 1923 yil 11 fevral; 137-son, 1923 yil 1 mart; 144-son, 1923 yil 17 mart.
6. Fan va texnika rukni: Elektrik avtomobillar // Ozod Buxoro. 98-son. 1924 yil 2 iyun.
7. K. Rahmonov. "Tarix fani bo'yicha innovatsiya va interfaol metodlarni tadbiq etish" (uslubiy qo'llanma). Buxoro-2020. –B. 96.